1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-385-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi "Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4321-son qarori.
4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.
5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.
6. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019
7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019
8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo'nalishlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

18-mavzu. Raqamli marketing

1. Raqamli marketing asoslari va 4R konsepsiyasi.
2. Raqamli marketingning an'anaviy marketingdan ustunlik tomonlari. Iste'molchi va biznes sektorlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari.
3. Marketing media vositalari. Samarali veb-tarmoqlarni yaratishdan va ulardan samarali foydalanish.
4. Elektron reklama transformatsiyasi. Reklamaga qilinadigan xarajatlar va daromadlar. Raqamli marketing samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: insert texnikasi, nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali.

18-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrda "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 sentyabrdagi “«Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3927-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori.

5. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.

6. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.

7. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019

19-mavzu. E-brending

1.Brending - mohiyati va asosiy xususiyatlari. E-brendingning asosiy xususyatlari.

2.Brending texnologiyasi doimiy mijozlarning tovar yoki xizmatga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga qaratilgan.

3.Qidiruv tizimlari, kontent reklamalar, internet – PR, onlayn–video, e-mail-marketing, audio reklama va boshqalar.

4.E-brending strategiyalari.Brendni mustahkamlash, qayta pozitsiyalash, mavjud brendni qimmatlashtirish strategiyalari.

Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar: jamoada ishlash, klasterlar, BBB.

19-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-385-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi "Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4321-son qarori.
4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.
5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.
6. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019
7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019
8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo'nalishlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

20-mavzu. Iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalarida elektron biznesni amalga oshirish

1. Ishlab chiqarish sohasini raqamlashtirishning asosiy ustunliklari.
2. Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishda raqamli biznesni amalga oshirish imkoniyatlari. Agrar sohani raqamlashtirishning xususiyatlari.
3. Xizmatlar ko'rsatishni raqamlashtirish. E-bank tizimini rivojlantirish. Raqamli moliya tizimi, moliyaviy aktivlar.
4. E-logistikaning xususiyatlari. Turizm xizmatlari sohasini raqamlashtirishning dolzarb masalalari.
5. O'zbekistonda "Aqlli shahar konsepsiyasi"ning rivojlanishi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: insert texnikasi, nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali.

20-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-385-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4321-son qarori.

4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.

5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.

6. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019

7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019

8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo‘nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

21-mavzu. Elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish muammolari

1.Axborot xavfsizligini ta‘minlashning muammolari. Raqamli xavfsizlik masalalari va uni ta‘minlash yo‘llari.

2.Internet tarmog‘idagi firibgarlik turlari va ularni aniqlash yo‘llari. Elektron pochta orqali firibgarlik. Spamlar. Axborotlarni o‘g‘irlash, kiber-hujumlar. G‘irrom raqobat.

3.Raqobat razvedkasi xususiyatlari. Sanoat josusligi. SHaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish.

4.Intellektual mulk ob‘ektlarini himoya qilish tizimi.Internet tarmog‘idagi firibgarlik muammolarini hal qilish yo‘llari.

Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar: jamoada ishlash, klasterlar, BBB.

21-mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-385-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4321-son qarori.

4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.

5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.

6. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019

7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019

8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo'nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

22-mavzu. Elektron xizmatlar sifatini boshqarish

1. Elektron biznes bozorining rivojlanish trendlari. Rivojlangan mamlakatlarda elektron biznesning holati tahlili. Raqamli xizmatlar xususiyati.

2. Elektron xizmatlar va ularning sifati o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlik. Elektron xizmatlar klassifikatsiyasi.

3. Elektron xizmatlarning sifat darajasini ta'minlash muammolari. Elektron xizmatlar sifatini o'lchash va baholash usullari. Raqamli xizmatlar sifatini boshqarishda tizimli tahlildan foydalanish.

4. Raqamli xizmatlar sifatini ta'minlashda xalqaro standart talablari (E-SQI). O'zbekistonda elektron xizmatlar sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: insert texnikasi, nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali.

22-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'RQ-385-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4321-son qarori.

4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.

5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.

6. Хасаншин И. А., КудряшоваА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019

7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019

8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo'nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

23-mavzu. SHaxsiy elektron biznesni yaratish

1. SHaxsiy elektron biznesni yaratish bosqichlari. SHaxsiy biznesni boshlash yo'lidagi faoliyat ketma-ketligi.

2. YAngi mahsulot yoki xizmatlar uchun g'oyalarni izlash va ularni tanlash imkoniyatlari. Startup loyihalari.

3. SHaxsiy elektron biznesni rivojlantirish strategiyalari. Bozorni pozitsiyalash asoslari. Risklarni boshqarish.

4. Investitsiya va moliyalashtirish manbalarini tanlash. Venchur investitsiyalarning xususiyatlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: “Nima uchun?”, jamoada ishlash, baliq skeleti.

23-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'RQ-385-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi “Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4321-son qarori.

4. Лapidус Л.В.Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.

5. Маркова В.Д.Цифровая экономика:Учебник/ В.Д, Маркова. — М.: ИНФРА-М. 2019.

6. Хасаншин И. А., КудряшовА.А., и др.Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019

7. GulyamovS.S., AyupovR.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019

8. Baltabaeva G.R. Globalizatsiya jarayonida raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisod tarmoqlarida ishlatilishining asosiy yo'nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN
TOPSHIRIQLAR, KEYS STADI, VAZIYATLI
MASALALAR VA TESTLAR**

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR, KEYS STADI, MANTIQUIY MASALALAR VA SAVOLLAR, AQLIY HUJUM UCHUN SAVOLLAR, TEZKOR SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

RAQAMLI IQTISODIYOT BO'YICHA SAVOL VA JAVOBLAR

1. Qanday qilib kriptovalyuta sotib olinadi?

Internet tizimida bir qancha pul almashinish birjalari mavjud bo'lib, ular vositasida oddiy valyutaga o'rnatilgan kurslar bo'yicha kriptovalyuta sotib olish mumkin. Ammo bu ishni qilishdan avval *(ya'ni real pulni konvertatsiya qilishdan oldin)* sizga elektron hamyon ochish talab etiladi. Elektron hamyon ochish uchun quyidagi saytga murojaat qilishingiz mumkin:

2. ICO investitsiyalarining tavakkalchilik darajasi qanday?

ICOning asosiy muammosi uni qonuniy boshqarishning hech qanday mexanizmlari mavjud emasligidir. Pullaringizni biror bir loyihaga berib, u muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda mablag'ingizni tamoman yo'qotishingiz ham mumkin. Agarda ICO hamda loyihani tashkil etganlar firibgarlar bo'lsa yoki dividend to'lash bo'yicha majburiyatlarini sizga foydasiz tarzda o'zgartirib olsalar muvaffaqiyatsizlikka uchrashingiz aniq bo'ladi. Shuning uchun loyiha haqida qanchalik ma'lumot ko'p bo'lsa va ekspertlar uni qanchalik faol muhokama qilsalar, siz uchun shunchalik yaxshi bo'ladi. O'ylamasdan tavakkalchilik qilishdan qutulish va ehtiyot choralarini ko'rishga yordam berish maqsadida **AngelList** va **Protocol Labs** kompaniyalari **Coinlist** (<https://coinlist.co/>) deb nomlangan internet maydonchasini ishga tushirdilar. Ushbu maydonchada shubhali loyiha va startaplarning ICO lari tekshiruvdan o'tkaziladi. Bu haqda foydali ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan internet resurslarni juda ham ko'p miqdorda **GOOGLE** qidiruv tizimi orqali ham topish mumkin. Bulardan tashqari **AQSH** ning qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasi (**SEC**) kriptobozor ishtirokchilari diqqatiga rasmiy bildirish bilan chiqdi. Unga ko'ra, shtatlar xududlaridagi ICO lar qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha qonunlar orqali nazorat qilinadilar. Bu bilan blokcheyn-ICO lar oddiy aktsiyalar chiqarishga tenglashtirildi.

3. Bitkoinlarni hech kimsa o'g'irlay olmaydimi?

Bitkoinlarni ham turli xil usullar bilan o'g'irlash mumkin, ammo birja egala ri va maynerlar tomonidan xali-hanuz ommaviy o'g'irliklar bo'lgani va xakerlar xujumi natijasida kriptovalyutalar yo'qotilgani haqida ma'lumotlar bo'lmagan. Kichik miqdordagi bitkoinlar o'g'irlanganligi haqidagi holatlar esa kuzatilgan.

4. *Kriptovalyutalarni hech kim olib qo'ya olmasligi rostmi?*

Yo'q, ammo, birjaning qaroriga binoan jamlab qo'yilgan kriptotangalardan ayrilgan holatlar bo'lgan.

5. *Kriptovalyutalar kursi har doim ham o'sib boradimi?*

Bu xolatlarining barchasi amaliyotdagi shart-sharoitlarga bog'liq. Birjadagi qallobliklar, foydalanuvchilar va mamlakatlarning turli xatti-harakatlari kursni ko'tarishi va xuddi shu tartibda tushirishi mumkin.

6. *Rasmiy kriptovalyutalar paydo bo'lsa qanday holat yuz beradi?*

Bu xolda rasmiy kriptovalyutalar amaldagi kriptovalyutalarda aylanayotgan pullarni o'ziga tortib olishi mumkin. Chunki uning ishonchlilik va himoyalanganlik darajasi xozigilarnikiga qaraganda ancha yuqori bo'ladi hamda foydalanuvchilari ham juda ko'p bo'ladi.

7. *Mayning qiluvchilar har doim ham foydaga ishlaydimi yoki yutqizuvlar ham bo'ladimi?*

Afsuski, bozordagi videokartalarning sifati turlicha bo'lib, ularning barchasi ham ko'zlangan daromadni bermasligi mumkin. Ayniqsa, agar mayning jarayoni kech boshlanadigan bo'lsa, hattoki sarflangan mablag'larni qoplay olmasligi ham mumkin.

8. *Videokartalar narxi ko'tarilishi qachongacha davom etadi?*

Videokartalarning narxlari avvalgi xoliga qaytishi uchun yana kamida yarim- bir yil kerak bo'ladi. Mayning qilish boshlanganidan beri videokartalar narxi ikki-uch barobar qimmatlashdi. Yangi mahsus mayninglar uchun mo'ljallangan videokartalarning bozorga kirib kelishi esa raqobat najasida oldingi narxlardan farq qilishi mumkin.

9. *Kriptovalyutalar sohasidagi keskin rivojlanish va ajiotaj jarayoni qachongacha davom etishi mumkin?*

Bu jarayon unga xalqaro moliya institutlari aralashmaguncha davom etadi va agarda kriptovalyutalar xalqaro miqyosda tan olinadigan bo'lsa, qonuniy asosga ega bo'ladi vashu tufayli hozirgi erkinlikning bir qismidam mahrum bo'linadi.

10. *ICO termini nimani anglatadi?*

ICO — Initial Coin Offering (tokenlarni birlamchi joylashtirish) — qandaydir kompaniya yoki loyiha tomonidan keng miqyosdagi investitsiyalar jalb qilish uchun

tokenlar (*kriptovalyutalar*) korinishidagi o'z pullarini chiqarish. **ICO** tashkil qilishning asosiy shartlaridan biri uning dividendlar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlaridir. Masalan:

- 1) *Sotilgan tokenlarni oldindan aniqlangan va ular **ICO** tashkil qilingan vaqtda sotilgan narxlaridan ancha katta bo'lgan narxlarda qayta sotib olish majburiyati.*
- 2) *O'z hizmat yoki mahsulotlarini tokenlarga pastroq narxda sotish majburiyati.*
- 3) *Investorlarga foydali bo'lgan boshqa turdagi bonuslar uyushturish majburiyati.*

Boshqacha qilib aytganda, o'z loyihasiga **ICO** orqali mablag' jalb etayotgan kompaniya blokcheyn-hamjamiyatdan kriptovalyuta ko'rinishidagi pul ko'rinishida qarz oladi. Qaysi bir ma'noda tokenlarni birlamchi joylashtirish **Kickstarter** kraudfunding servisidagi loyihalarni ishga tushirishga o'xshab ketadi.

11. **Token nima?**

Token (*inglizcha token*) — biror bir jamoa tomonidan chiqarilgan xususiy yoki korporativ pul birligi.

12. **ICO ni qanday qilib tashkil qiladilar?**

Istalgan potentsial loyiha yoki startap **ICO**ga pul jalb qilishi mumkin. Ammo buning uchun blokcheyn hamjamiyatning ishonchini qozonish kerak bo'ladi. Ya'ni, loyihaning xayotiyiligini va mazmunini ommaviy ravishda isbot qilish kerak bo'ladi, chunonchi, uning g'oyasini ko'rsatish, biznes loyihasini ochib berish, loyihani amalga oshiradigan komanda bilan tanishtirish va loyihaning amalga oshiruvchi eng asosiy shaxslarni tavsif qilishni amalga oshirish. **ICO** tashkil qilish uchun kerakli bo'lgan bunday amallar ketma-ketligi juda ko'p vaqtni oladi.

Shuning uchun bunday ishlarni bajarishga obruli kompaniyalarni jalb qilgan ma'qul bo'ladi - ular barcha kerakli hujjatlarni tayyorlab beradilar, loyihaga diqqatni jalb qila oladilar va blokcheyn hamjamiyati ishonchini qozonish uchun ko'mak beradilar. Bunday kompaniyalarning yordami uchun to'lanadigan mablag' ko'pchilik xollarda **ICO** vositasida yig'iladigan mablag'ning 10% atrofidagi bo'lishi kuzatilgan. Bu masala boyicha masalan quyidagi saytga murojaat qilishingiz mumkin: <https://www.walletbuilders.com/> (*Create your own blockchain - Create your own coin like Bitcoin with a few simple clicks*).

13. ICO vositasida qancha pul mablag'i jalb qilish mumkin?

Umuman aytganda, **ICO** yordamida loyiha yoki startapga istalgancha pul mablag'i jalb qilish mumkin. Ammo jiddiyoq loyihani boshlash uchun ko'pincha 8 million dollar atrofidagi mablag' talab etiladi. Lekin qancha pul kerakligini asoslab berish talab etiladi. Xuddi kraudfunding singari, loyihani ishga tushirish uchun minimal summa va kompaniyaning barcha harajatlarini qoplaydigan mablag' haqida gap ketishi mumkin. Masalan, **Mozilla FireFox** ning Yangi brauzeri yaratuvchilari uchun tashkil etilgan **Brave** nomli **ICO** 30 soniya davomida **Ethereum** kriptovalyutasida 35 million AQSH dollariga ekvivalent bo'lgan mablag' to'plagan. Bunday pullarni tizimdan chiqarish mahsus yurisdiksiyada quyidagi xududlarda amalga oshiriladi: Singapur, Britaniya Virgin orollari va Lyuksemburg. Xuddi shu davlatlarda kriptovalyutalar bilan ishlash mexanizmi amal qiladi.

14.ICO ga investitsiyalar qanday amalga oshirishi mumkin?

Agarda o'z bitkoin yoki efiriumlaringizni biror bir loyihaga jalb qilishni istasahgiz, bu ishni mahsus internet maydonchalarida amalga oshirishingiz mumkin, masalan, **Smith & Crown, ICO Alert** va shunga o'zshashlarda. Investitsiyalar jalb qilish mumkin bo'lgan loyiha va startaplar har kuni e'lon qilinadi va ularning barchasiga pul kerak bo'ladi. Investor tomonidan **ICO** ga pul o'tkazish xuddi bankdagi pul o'tkazish jarayoniga o'xshab ketadi. To'laqonli investor bo'lish uchun eng avvalo kriptovalyuta sotib olishingiz lozim bo'ladi.

15.Blokcheyn deganda nimani tushunamiz va uning qanday xususiyatlari mavjud?

Quyidagi jumlani juda ko'p marta eshitgansiz, ammo asl ma'nosini tushunmagan bo'lsangiz kerak: *«Blokcheyn - bu ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan taqsimlangan reestr . . . »* Ammo bu tushuntiruv sizni qoniqtirmaganligi va siz uchun hech nimani anglatmasligini tushungandirsiz. Biz quyida shuni boshqacharoq qilib tushuntirishga harakat qilamiz. **Blokcheyn** - bir vaqtning o'zida internet orqali ulangan bir qancha komp'yuterlarda saqlanadigan ma'lumotlar bazasidir. U nima uchun kerakligini oddiy misol yordamida tushuntirib berish mumkin. Faraz qiling, siz **AQSH** dagi do'stingizga bank o'zkazmasi usuli bilan 500 dollar pulni jo'natmoqchisiz. Buning uchun pul o'tkazmasi blankasidagi bir qancha joylarni to'ldirishingiz kerak bo'ladi. Undan so'ng bank xodimi sizning shaxsiy hisob raqamingizdan pul olib, uni xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha bankning hisob raqamiga o'tkazadi va bu pulni AQSH ga pul o'tkazib beradigan bank-agentning hisob raqamiga o'tkazadi, u esa o'z navbatida pulni **AQSH** ga o'tkazadi va u yerda ham yuqorida aytilgan operatsiyalar teskari tartibda amalga oshiriladi va oxir-oqibat pullar do'stingizning shaxsiy hisob raqamiga kelib

tushadi. Ammo oradagi barsha vositachi banklar o'z komissiyalarini olishlar tufayli, do'stingizga 2-3 kundan so'ng 500 dollar emas, balki chamasi 470 dollar kelib tushadi. Bunday pul o'tkazmasining yana bir yomon tomoni shundaki, operatsiyalar amalga oshayotgan 2-3 kun oralig'ida pulingiz qaerda ekanini va kim uning hisobini yuritayotganligini siz ham, do'stingiz ham bila olmaysizlar. Agarda bu vaqtda server qo'qqisdan ishdan chiqib qolsa, banklarda firibgarlar biror bir amaliyotni o'tkazishsa yoki banklardan biriga xareklar hujum qilib qolishsa, pulingiz qaerdaligini bilish va ularni qaytarish uchun ancha ko'p vaqtingiz ketadi va asablashishingizga ham tog'ri keladi. Blokcheyn orqali amalga oshiriladigan pul o'zkazmalarida esa bunday xolatlar ro'y berishining oldi olingan va pullar blokcheyn tizimi orqali katta tezlik bilan boshqa hisob raqamlariga o'tkazilishi mumkin. Shuning uchun ham xozirgi paytda blokcheyn kriptovalyutalarni bir hizob raqamidan boshqasiga o'tkasib berish uchun qo'llanilmoqda, lekin bir qancha tashkilotlar turli xildagi maqsadlarni amalga oshirishda ham blokcheynlardan foydalanmoqdalar.

16. Blokchenning yana qanday afzalliklari mavjud?

Bunday ko'rsatgichlar sifatida eng avvalo blokcheyn tizimi pul o'tkazmalarining tezkorligini, oddiyligini, shaffofligini va pul o'tkazmalarining narxi pastligini ko'rsatish mumkin. Agar kriptovalyutani yoki qandaydir ma'lumotni blokcheyn orqali jo'natsangiz, bunday ma'lumot jo'natish haqidagi xabarni o'zgartirish yoki qalbakilashtirish umuman mumkin emas, chunki bu xabar jahon bo'ylab yuz minglab komp'yutarlar orqali tasdiqlanadi. Bu kom'yuterlarda xuddi shu ma'lumotning minglab nusxalari saqlanadi va istalgan foydalanuvchi ularni istalgan vaqtda ko'rib va tekshirib chiqishi mumkin bo'ladi. Pul o'tkazish amaliyoti bir necha daqiqani tashkil qilib, uning narxi bank pul o'tkazmasi narxidan o'nlab marta kichik bo'ladi. Agar siz pullaringizni yoki qandaydir ma'lumotni blokcheynda saqlasangiz, yozuvlar hech qachon yo'qolmaydi va uni hech kim qalbakilashtira olmaydi. Bozorning har bir ishtirokchisi istalgan paytda istalgan tashkilotning moliyaviy xolatini bilib olishi mumkinligi imkoniyati xosil bo'ladi. Bunda hech qanday vositachi va uchinchi tomonga xojat qolmaydi, ma'lumotlarning to'liq shaffofligiga va hisob-kitoblar aniqligining matematik kafolati ta'minlanadi.

17. Nima uchun kriptovalyutalar mayningi amalga oshiriladi va u nima uchun kerak?

Kriptovalyutalar mayningi tizimning ishlashi va maynerlar pul ishlab olishlari uchun kerak. Kriptovalyutalarni mayning qilish bu - blokcheyndagi tranzaksiyalarni tasdiqlash va buning uchun tizimdan hamda ikkala o'zaro bitim tuzayotgan tomonlardan mukofotlanuv olishdir. Bu ish bilan shug'ullanish uchun quvvatli

kom'yuterlar va tashqi qurilmalar kerak bo'ladi. Bitkoinlar uchun mahsus chiplar ishlatilsa, boshqa kriptovalyutalar uchun videokartalardan foydalaniladi. Shuning uchun ham videokartalarning narxлари ancha ko'tarilib ketdi (*taxminan 60- 70%o larga*). Videokarta ishlab chiqaruvchi **NVIDIA** kompaniyasining aksiyalari esa 2017 yilning boshidan buyon 58% ga oshdi.

18. Men mayning qilishni boshlashim uchun nima qilishim lozim?

Mayning qilishni istalgan odam boshlashi mumkin, ammo buning uchun shu soha bo'yicha puxta bilim, istak, qiyinchiliklardan qo'rqqmaslik va Yangiliklarga qiziqish bo'lishi kerak. Ammo, uyda amalga oshiriladigan mayning davri o'tib ketdi desak ham bo'laveradi, chunki bu bozorga kirganda siz katta miqyosda faoliyat yurgizadigan maynerlar bilan raqobat qilishingizga to'g'ri keladi. Ularda eng Yangi hamda optimal ravishda sozlangan texnik va dasturiy qurilmalar, elektr quvvatiga bo'lgan eng arzon tariflar bo'lgani uchun sizni raqobatda yengib chiqishlari muqarrar. Shunga ham qaramasdan, maynerlikni boshlamoqchi bo'lsangiz, tizimdagi kriptovalyutalar kursi va maynerlar sonining maqsadga muvofiq bo'lgan nisbatida bir necha oylar ichida daromad qilib, qurilma va dasturiy ta'minotga ketgan harajatlarni qoplab olishingiz va so'ngra foydaga kirishingiz ham mumkin. Lekin kriptovalyuta kursi vaqtinchalik tushib ketsa, u xolda biroz muddat chidab turishingizga to'g'ri keladi. Bu davrda boshqa turdagi, kursi o'sayotgan kriptovalyutaga o'tib, ishingizni davom ettirishingiz mumkin. Qisqasi, ushbu bozorda daromad topish uchun topqirlik, aql-idrok, harakat va kriptovalyutalar bozori holatini yaxshi bilish talab etiladi.

19. ICO orqali daromad toppish haqida batafsilroq ma'lumot berishingiz mumkinmi?

Ko'z oldingizga attraktsionlar parkini keltiring, parkka kirishda park emblemasi tushurilgan jeton sotib olasiz va parkda bu jetonlar yordamida turli hil o'yinlarda ishtirok etishingiz mumkin bo'ladi - qo'rqinchlar vodiysida bo'lishingiz, mergan bo'lib ko'rishingiz, tomosha g'ildiragida aylanishigiz yoki boshqa xildagi qiziqarli attraktsionlarda ishtirok etishingiz mumkin. Blokcheynlar bilan ishlaydigan turli loyihalar (*masalan, blokchenda ma'lumot saqlashga mutaxassislashgan loyihalar*) ham xuddi shunday jetonlar chiqaradilar. Ularni tangalar yoki tokenlar deb atashadi. Xaridor bunday tokenni sotib olib, uni loyihaning qandaydir hizmatini (*yoki mahsulotini*) sotib olish uchun ishlatishi mumkin. Masalan, u tokenlarini o'z ma'lumotlarini axborot bazasida saqlash uchun kerakli bo'lgan joyni ko'paytirish uchun ishlatishi mumkin (*bu xuddi **Dropbox** dan ma'lumotlar saqlash uchun qo'shimcha joy sotib olish yoki **Google Disk** dan qo'shimcha virtual disk sotib olishga o'xshab ketadi*). Agar loyiha ommabop bo'lib ketsa, u xolda sotib olingan tokenlarning narxi

ham o'sa boshlaydi, tokenlarning egalari esa bu hisobidan ham foyda qila oladilar. Blokcheyn-loyihalar token chiqarganlaridan so'ng, ularni bozorga sotish uchun joylashtiradilar va istalgan inson ularni sotib olishi mumkin bo'ladi. Xuddi shu jarayon **ICO - Initial Coin Offering** (*tokenlarni birlamchi joylashtirish*) deb ataladi.

20. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, kriptovalyutalar bozorida ishlash jarayoni moliyaviy piramidalarga juda o'xshab ketadi. Bu qanchalik to'g'ri?

To'g'ri, juda o'xshab ketadi, ammo moliyaviy piramidaning asosiy maqsadi, piramida yaratuvchilarini Yangi ishtirokchilar mablag'lari hisobiga boyitishdir. Bunday piramidalarning aktivlari tashqi bozorlarda hech kimga kerak emas, ular ko'pincha foydalanishga yaroqsiz va hech qanday muammolarni yechib bera olmaydilar. Kriptovalyutalar bozori esa butunlay boshqacha - aql bilan ish ko'rilsa, kriptovalyutalar moliyaviy bozorlarning katta muammolarini hal qilib bera oladilar, ularning aylanmasi uning ishtirokchilari uchun juda qulay va foydali. Bu esa kriptovalyutalar sotib olishga katta qiziqish uyg'otadi. Ammo agarda kelajakda kriptovalyutalardan ham samaradorroq biror bir narsa ixtiro qilinsa, u xolda yirik investorlarning va valyuta bozori o'yinchilarining kriptovalyutaga bo'lgan ishonchini so'ndirib, kursning tushib ketishiga va kapitallarning boshqa yo'nalishga oqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin, universal valyuta yaratish bo'yicha navbatdagi texnologik sakrash biror bir turdagi kriptovalyutalar orqali bolishi extimoli yuqoriroq.

21.Kriptovalyutalar qandaydir kichik guruhga mansub bo'lgan insonlarning maxsuloti degan fikr to'g'rimi?

Yo'q, bunday emas, chunki ko'pchilik kriptovalyutalarning kursi oshishiga asosiy sabab, kriptovalyutalar bozoriga katta o'yinchilar va investorlarning kirib kelishi bilan bog'liq. Xozirgi paytda xalqaro korporatsiyalar, investitsion fondlar, milliarderlar bu sohaga kirib kelganliklari va bir qancha davlatlarning bir necha turdagi kriptovalyutalarni va blokcheyn texnologiyalarni ishlatishga ruhsat berganligi va uni qo'llab-quvvatlashlari investorlarga va kriptovalyuta egalari bu sohada ishlashni davom ettirishga umid uyg'otdi. Halqaro bozor esa kriptovalyutalarni vaqtinchalik bir moliyaviy uskuna deb hisoblamayapti - kriptovalyutalar hozir real, ancha murakkab va volatil moliyaviy aktiv hisoblanayapti.

22.Kriptovalyutalarga qanday qilib investitsiya qilish mumkin va ularning qaysi birini tanlab olgan ma'qul?

Bu savolga javob toppish uchun ancha-muncha mehnat qilishga to'g'ri keladi. Chunki kriptovalyutalar bozorini tushunish ancha murakkab bo'lgan juda ko'p nozik tomonlar va xususiyatlarga ega. Masalan, bu bozorda ishlashni boshlayotgan inson bir

qancha dilemmalarga duch keladi: qaysi turdagi kriptovalyutani tanlash lozim, qanday elektron hamyonni ochish maqsadga muvofiq bo'ladi, kriptovalyutalar sotib olish uchun qanday birjani tanlash kerak, qanday qilib birjaning ishonchga sazovorligini tekshirish mumkin, birjada qanday qilib regiztratsiyadan o'tish mumkin, kriptovalyutalarni qanday va qaerda saqlash kerak va shunga o'xshash bir qancha tanlovni talab qiladigan savollar paydo bo'ladi. Agarsizdabundaymuammolarnihalgilish va kriptovalyutalar bozorini chuqur o'rganish uchun vaqt bo'lmasa, ammo bu bozorning doimiy ravishda o'sib boruvchi potentsialidan foydalanib, biroz miqdorda pul ishlab olishni juda istasangiz, xozirgi davrdagi eng yaxshi kriptovalyutalarni o'z tarkibiga olgan tayyor investitsion portfelni sotib olishingiz mumkin. Bunday mahsulotlardan biri - xalqaro moliya kompaniyasi **Alpari** tomonidan ishlab chiqilgan va bozorga chiqarilgan **CryptA Capital** investitsion portfelidir. Bu moliyaviy mahsulot yaxshi foyda keltirishi va investitsiya jarayonini boshqarishning osonligi bilan xususiy investorlar orasida katta qiziqish bilan kutib olindi.

23.CryptA Capital - investitsion portfelida qanday qilib investitsiyalardan daromad olinadi?

Ilgariroq ko'rsatganimizdek, kriptovalyutalarga qiziqish ortib borishi bilan ularning kurslari ham osha boradi. Ammo bunda turli xil valyutalarning kurslari turli kattalikda, notekis, sakrashlar bilan o'zgaradi. **CryptA Capital** investitsion portfeli xuddi shunday xususiyatlarni hisobga olgan xolda yaratilgan va u xozirgi paytdagi eng likvid va ommabop valyutalarni, ya'ni, bitkoin, laytkoin va efirium larni o'z tarkibiga olgan. Bu valyutalarga qiziqish katta bo'lishi ularga katta daromad keltirish xususiyatini beradi.

24.CryptA Capital investitsion portfelining afzalliklari nimalardan iborat?

Ushbu investitsion portfelning asosiya fzallik tomoni uning diversifikatsiyasidir, ya'ni uning yordamida birdaniga uchta valyutaga investitsiya qilinadi. Bu esa o'z navbatida uchta valyutaning kurslari bozoriy tebranishini tekislattirish imkonini beradi va natijada daromad ham stabil bo'la boshlaydi. Kriptoportfelning yana bir afzallik tomoni investitsiya jarayoning nisbatan oddiyligidir. Investor faqatgina portfeldagi o'z ulushini - tokenni sotib oladi va shundan so'ng, **Alpari** saytidagi "**Shaxsiy cabinet**" da daromadlar statistikasini kuzatib boradi. Portfelga investitsiya qilish muddati bir yil bo'lib, tokenlarni sotish orqali istalgan muddatda undan chiqish ham mumkin.

25.Raqamli valyutaning real imkoniyatlari haqida nimalar deya olasiz?

Kriptoportfel boshqa turdagi an'anaviy investitsiya turlaridan o'zining daromadi

kattaligi bilan farqlanadi. Masalan, tokenlar natxining 500 dan 1000 birlikkacha o'zgarishi token egalariga 100% foyda keltiradi. Buning uchun investitsion portfeldagi tokenlarni kerakli paytda sotib olib, kerakli paytda sotish talab etiladi, albatta. Tokenlarning narxlari qanchaga o'zgarganini **Alpari** saytining tegishli bo'limidan bilib olish mumkin. Raqamli valyutalarga bo'lgan qiziqishning brogan sari ortib borishi ertami-kechmi bu aktivlarning yetishmovshiligiga olib keladi. Shuning uchun ham kriptovalyuta investitsion portfellarieng samarali investitsion portfellardan biridir deyishimiz mumkin. Xozirgi kunlarda **CryptA Capital** ga kirish narxi 100 dollar turadi. Lekin **Alpari** analitiklari 1000 dollardan ortiqroq summaga investitsiya qilishni maslahat beradilar, chunki bu xoldagina kattaroq daromad olish imkoniyati yaraladi. **CryptACapital** investitsion portfeli haqida batafsil ma'lumot olishni istasangiz, **alpari.com** saytiga murojaat qilishingiz mumkin.

26.Kriptovalyutalar davlatning milliy valyutaga bo'lgan huquqiga jiddiy tahdid qiladimi?

Bu fikr anchagina ehtimolga yaqin deyish mumkin, ammo biz ierarxik tizimga solingan bizning hayotimiz juda ajoyib ekanligini ham shubha ostiga olamiz, albatta.

27.Kriptovalyuta pul jamg'arishning juda ajoyib usuli ekanligi va uning yordamida yaxshigina pul ishlab olish mumkinligi rostmi?

Juda unchalik emas, ammo xozirgi davrda bu fikrni qisman to'g'ri deyish mumkin - bu omadingizga va kriptovalyutalarning joriy kursiga bog'liq. Ammo shuni aniq aytilish mumkinki, ertami-kechmi oddiy pullar (*ko'pincha ularni fiat pullar deb ham atashadi*) bizning hayotimizni tark etishadi. Ular faqatgina tarixdagi chiroyli qog'ozlar sifatida muzeylarda eksponat sifatida bo'lishadi.

28.Xozirgi davrda qanday pullar ko'proq tarqalgan - qog'oz pullarmi yohud elektron pullarmi?

Ko'p yillar avval ko'pchilik insonlar oddiy pullarni olmasdan, ko'proq oltin yoki kumush tangalarni olishga urinishgan, hozir esa ko'pchilik qog'oz pullardan ko'ra elektron pullarni afzal ko'radilar.

29.Kriptovalyutalar uchun Markaziy bank yoki pul chiqaruvchi tashkilotlar kerakmi?

Kriptovalyutalar uchun Markaziy bank ham, pul pechat qiluvchi stanok ham kerak emas. Ular maynerlar tomonidan emissiya qilinadilar va blokcheynlar vositasida nazorat qilinadilar.

30.Qandaydir davlat, masalan Xitoy yoki AQSH kriptovalyutalar kursiga ta'sir qila oladimi?

Umuman aytganda, kriptovalyutalar kurslari, xuddi aktsiyalar kurslari kabi

bozordagi talab va taklif asosida o'zgarishi mumkin. Nazariy jihatdan, jahondagi hech bir davlat kriptovalyutalarni kursiga bevosita ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki ular milliy darajadan yuqoriroq turadilar.

31.Mayning qilish davlat tomonidan taqiqqa olinsa nima bo'ladi?

Bu xuddi nafas olishni yoki so'kinishni ta'qiqlaganday gap, chunki hozirgi paytda jahon miqyosidagi ancha miqdordagi tovar pul almashinish operatsiyalari kriptovalyutalar yordamida amalga oshmoqda.

32.Bizning mamlakatda davlat kriptovalyutalarni qo'llab-quvvaltayaptimi?

Xozircha yo'q. Ammo boshqa davlatlar, masalan, Yaponiya, Evropva Ittifoqi, Rossiya, Belorusiya, Venesuela kabi davlatlarda kriptovalyutalar davlat miqyosida tan olingan yoki yaqin orada tan olinishi mumkin.

33.Kriptovalyutalarga investitsiya qilish maqsadga muvofiqmi?

Kriptovalyutalar kurslari oy sayin va yil sayin xozircha katta tezlik bilan o'sib bormoqda. Ilgariroq unga investitsiya qilganlarning ba'zilari millioner, ba'zilari esa milliarder ham bo'ldilar. Ammo biz sizga bu ishni tavsiya qila olmaymiz, chunki bu amalda katta tavakkalchilik mavjud, Lekin *"Tavakkal qilmasang, shampanskiy ichmaysan, degan gap ham bof"*.

34.Nega xozirgi davrda kriptovalyutalarning kursi asosan o'sish jarayonida?

Chunki ularga qandaydir foydali narsalarini sotib olish yoki u bilan bog'liq xizmat turlaridan foydalanish mumkin. Kriptovalyutalar Yangi avlod pullaridir deb ta'kidlashimiz ham mumkin.

35.Dunyo bo'yicha kriptovalyutalar eng ko'p ishlatiladigan davlatlar qatorida qaysilarini kiritish mumkin?

Bu ko'rsatgich bo'yicha 2017 yilga kelib, AQSH va Germaniya birinchi o'ringa chiqib oldidilar. Keyingi yillar esa Xitoy va Yaponiya ham oldinga chiqib oldilar.

36.Blokcheyn yordamida qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

Blokcheyn vositasida hujjatlarni qalbakilashtirishning olidini olish, buxgalteriya hisobini yuritishni soddalashtirish, taqsimlangan ma'lumot bazalarini yaratish va yuritish, katta hajmli ma'lumotlarni saqlashni osonlashtirish, elektron hujjatlar tayyorlashni yengillashtirish, vizalar, pasportlar va bank kartochkalarini yaratish kabi ishlarni avtomatlashtirish mumkin. Kelajakda blokcheyn hayotning barcha jabhalariga kirib keladi va davlat bunga tayyor bo'lishi kerak.

37.Real hayotda kriptovalyutalarning ishlatilishiga bir real misol keltira olasizmi?

Albatta, masalan, uy-joy quruvchilar kriptometr deb nomlangan kriptovalyuta turini ishlab chiqaradilar va **ICO** vositasida kriptometr tokenlarini kvartiraga muhtojlarga sotadilar. Bunda aholi namoyondalari butun boshli kvartirani emas, balki kvartiraning qandaydir kvadrat metrlarini sotib oladilar. Agar ularning sotib olgan kriptometrlari kvartira metrajiga to'g'ri kelsa, kvartira egasi bo'ladilar, aks xolda ular yoki shunday metrajli uy qurilishini kutadilar, yoki birjadan o'zlari uchun kerakli bo'lgan kriptometrlarni sotib olib, kvartiraga egalik qiladilar. Ya'ni hech qanday ipoteka kreditini jalb qilmasdan va foizlardan ozod bo'lgan xolda kvartira olish mumkin bo'ladi.

38.Blokcheyn texnologiyasi haqida ommabop bir fikr ayta olasizmi?

Albatta, texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq ravishda oldin shaxsiy kom'yuterlar davri bo'lgan, keyin internet davri boshlangan, hozir esa blokcheyn texnologiyasi davri boshlandi va u ham ancha insonlar hayotini yaxshilash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratadi.

39.Mayning biznesidan katta foyda olish mumkinmi?

Juda murakkab biznes turi bo'lgan mayningdan katta foyda olish uchun hozirgi davrda katta investitsiya kerak bo'ladi. Ishlangan pullarni esa yana reinvestitsiya qilib, hisoblash quvvatini oshirish, Yangi qurilmalar sotib olish, doimiy ravishda kengayish kerak bo'ladi. 2030 yilga kelib, har bir topilgan blok uchun mukofot miqdori 2 bitkoin atrofida bo'ladi. Tranzaksiyalar soni esa 15 ga teng bo'ladi. Natijada protsessingdan olingan daromad bloklar topilganidan keladigan daromaddan kamroq bo'lib qoladi.

40.Qaysi davlatlardagi kriptobirjalar eng ishonchlilari hisoblanadi?

Har qanday davlat o'z fuqarolarining turli xildagi firibgarlardan aziyat chekmasligini va tavakkalchiliklardan himoyalanihini istaydi. Xuddi shuning uchun ham 2017 yilga kelib, jahondagi yettita yirik kriptovalyuta birjalaridan ikkitasigina qoldi. Kriptovalyuta tizimini ilk bora tartibga solgan mamlakat bo'lgan Yaponiyadagi kriptobirjalar eng himoyalangan hisoblanadi.

41.Kriptovalyutalar sohasida davlat nimani istamaydi?

Davlat kriptovalyutalarning kapitalni legallashtirish uchun ishlatilmasligini, qora bozorda ishlatilmasligini, kapitalning chet ellarga oqib ketmasligini va criminal ishlar kriptovalyutalar orqali amalga oshmasligini istaydi.

42.Blokcheynlardan foydalanish miqyosi ko'payib ketsa, nima bo'ladi?

Blokcheyndan foydalanish miqyosi qanchalik ko'p bo'lsa, mamlakatimiz davlat

apparati shunchalik yaxshi ishlaydi va biz ham shunchalik ko'p manfaat ko'ramiz.

43. ICO tashkil qilish bo'yicha hozirgi vaqtda qanday ma'lumotlar bor?

Siz aytgan vaqtga kelib, 718 ta **ICO** tashkil qilingan va ularning 138 tasi kriptovalyutalarda 1 mln dollardan ko'proq mablag' yig'a olgan.

44.Kriptovalyutalarni magazinlardan sotib olish mumkinmi?

Menimcha, xozirda bunday imkoniyat bo'lmasa kerak. Kriptovalyutalarni birjalardan yoki valyuta almashinuv punktlaridan sotib olish mumkin. Ularda kriptopullar fiat valyutaga ma'lum bir kurs bo'yicha almashtirilib beriladi.

44.BuzCoin (BUZ) kriptovalyutasi haqida nimalar ma'lum?

Bu kriptovalyuta Rossiyalik artist va teleboshlovchi Ol'ga Buzova tomonidan tashkil qilingan kriptovalyuta turi bo'lib, loyiha **Buzar** deb nomlangan platformani ham o'z ichiga oladi. **Buzar** platformasining asosi ichki kriptovalyuta bo'lib, uning vositasida operatsiyalar amalga oshiriladi. **BuzCoin** yordamida fiat valyutalar va kriptovalyutalar orasidagi almashinuvlarni amalga oshirish mumkin.

45.BuzCoin qanday ishlaydi?

BuzCoin ERC20 standartiga asoslangan va **Ethereum** platformasida yaratilgan. **Buzar** blokcheyni krossplatformali tokenlar chiqaradi.

ERC20 standartiga ko'ra, tokenlarning tizimdagi taqsimlanuvi smart-kontraktlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa tokenlar egalariga o'z mablag'larini istalgan loyiha

va tizimlarda ishlatish imkonini yaratadi. Tovarlar sotib olish va sotish **B2C**, **C2C** va **B2B** turlaridagi smart-kontraktlar siyosati orqali ta'minlanadi.

46.BuzCoin kriptovalyutasining kelajagi qanday?

O'z platformasiga asoslangan bunday kriptovalyutaning kelajagi haqida hozircha biror bir aniq fikr aytish qiyin, ammo **ICO** bu loyihaga yaxshigina turtki bo'lishi mumkin. Uning boshqa tizimlar bilan integratsiya qilinishi ham yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

47.Cardano qanday kriptovalyuta platformasi hisoblanadi?

Cardano yangi **Haskell** dasturlash tilida yozilgan bo'lib, u barcha operatsiyalarning yuqori darajadagi ishonchliligini ta'minlab beradi. Himoya usuli sifatida **Proof-of-Stake** ishlatiladi. Platformani yaratish 2015 yilda boshlanib, **ICO** 2017 yil yanvarigacha davom etgan. Natijada \$62 million mablag' yig'ilgan. Platformani yaratishda Konnetikut, Afina va Edinburg universitetlari ishtirok etishgan. Ushbu smart-kontrakt platformani iqtisodni demokratlashtirish uchun ishlatilishi rejalashtirilgan.

48. Cardanoning boshqa kriptoplatformalardan farqi nimada?

Cardano deb nomlangan ko'p darajali protocol boshqalaridan o'zining loyihani boshqarishdagi murakkab aloqalari tizimi bilan farqlanadi. Bu esa unga to'liq detsentralizatsiyani (markazlashmaganlikni) ta'minlab beradi, chunki tizimni ishlab chiqqanlar ham unga minimal ta'sir qila oladilar. Ular platformaning texnik tomonini sozlab turishlari mumkin, ammo **Cardano** kriptovalyutasining kursi yoki anonimligiga umuman ta'sir ko'rsata olmaydilar. Boshqaruv darajasi platforma tayanadigan smart-kontraktlarning bajarilishiga javob beradi. Tizimni ishlab chiqqanlar nazorat vositasi foydalanuvchilarning qora ruyhati bo'ladi holos,, ya'ni, firibgarlar, muttahamlar, tovlamachilar va spamerlar.

49. Cardano qanday qilib kriptovalyutalarning muammosini - kompleks masshtablashishni hal qila oladi?

Platforma barcha foydalanuvchilarga va ularning pul operatsiyalariga maksimal darajadagi konfidentsiallikni ta'minlab beradi. **Cardanoning** asosiy xususiyatlaridan biri - tarmoqdagi kelishuv (consensus) ni ta'minlab beruvchi unikal algoritm - **Ouroborosning** ishlatilishidir. Bu algoritm yuqori darajadagi havfsizlikni ta'minlab beradi.

50. Cardano kriptovalyutasining hozirgi holati qanday?

Cardano (ADA) kriptovalyutasi 2017 yil oktyabrda ikki yillik **ICO** dan so'ng ishga tushirilgan. **ADA** kriptovalyutasi **Cardano** tarmog'i ichidagi tranzaksiyalar uchun ishlatiladi. **ADA** uchun **Daedalus** deb nomlangan himoyalangan mul'tiplatformali hamyon ishlatiladi. Hozirgi paytda **Cardano** ning kapitalizatsiyasi 4 milliard dollarga yetadi va u **CoinMarketCap.com** reytingida kapitalizatsiya bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi. **ADA** kriptovalyutasining kursi \$0,155927 yoki 0,00002281 BTC. Uning 31 milliard tokeni chiqarilgan bo'lib, bundan 26 milliard bozorda ishlatiladi.

51. Nima uchun insonlar bitkoinlarni sotib oladilar?

Birinchidan, bir qancha mamlakatlarda (*shu jumladan, Yaponiya, AQSH va Evropada*) bitkoinlarga nimalarnidir sotib olish mumkin. Bu juda qulay va tez amalga oshiriladi. To'lovlar juda tezkorlik bilan va minimal komissiyada yetib boradi hamda to'lovlarni amalga oshirish uchun sizga banklar yoki brokerlar singari o'rtakashlar kerak bo'lmaydi. Bu esa to'lovni osonlashtiradi va unga anonimlik bag'ishlaydi (*kriptovalyuta hamyonlarida uning egalari ism- familiyalari ko'rsatilmaydi*). Ikkinchidan pullarni kriptovalyutalar ko'rinishida saqlashni ko'pchilik mablag'lar diversifikatsiyasi deb tushunadi. Banrlarda valyuta bo'yicha depositlarda stavkalar xozirda 10% dan kamroq miqdorda, qimmatli qog'ozlar bozorlarida esa stavkalar tushmoqda, kriptovalyutalar esa ko'pchilik xollarda o'sib bormoqda. Ko'pchilik esa

tabiiy ravishda kurslar o'sishidan foydalanishni istaydi.

52. Odamlar bitkoinlarni qaerlardan sotib oladilar?

Ko'pchilik insonlar kriptovalyutalarni sotib olish uchun internet pul almashtirish shahobchalaridan, messengerlardagi maxsus botlardan, internet hamyonlardan va kriptovalyuta birjalaridan foydalanadilar. Kriptovalyutalarni ishlatish qulayligi va kursi juda tez o'zgarayotganligi tufayli, ularni sotib olishga bo'lgan talab juda tez sur'atlar bilan ko'payayapti. Ko'pchilik kriptovalyuta birjalarining komissiyasi 4 - 5% ga yetadi, ba'zilar esa kriptovalyuta narxini ancha oshirib sotishga urinadilar. Lekin kriptovalyuta xarid qilishning eng oson va oddiy usuli - biror bir katta kriptovalyuta birjasiga bank pul o'tkazmasi qilgan xolda ularni eng yaxshi kursda sotib olishdir. Lekin ko'pchilik banklar kriptobirjalar bilan oldi-sottini unchlik yoqtirmaydilar va bunga ishonmaydilar ham, ularning tavakkalchilikni boshqaruvchi departamentlari bunday tranzaksiyalarni blokirovka qilib qo'yishga harakat qiladilar. Ba'zida esa o'ta konservativ banklar hizmatchilari siz haqingizdagi ma'lumotni mahsus hizmatlarga jo'natib, sizni ancha tashvishga solib qo'yishlari ham mumkin.

53. Qanday faktorlar kriptovalyutalar kursiga ta'sir qilishi mumkin?

Kriptovalyutalar (*shu jumladan, bitkoin, bitkoin cash, laytkoin, ethiriumlar*) ni ko'pincha raqamli oltin deb atashadi, chunki Yangi tangalarning topilishi (*mayning*) va tizimda paydo bo'lishi doimiy ravishda kamayib borayapti. Bitkoin tangalarining soni aniq matematik formula bilan chegaralangan - 2034 yilga kelib, 99% bitkoinlar topilib bo'linadi (*mayning qilinib bo'linadi*) degan fikrlar ham bor. Talab oshishi bilan bitkoinning narxi yanada oshib borishi tabiiy. Boshqa tomondan qaraganda, xozir bozorda tizimdagi mavjud tangalarning 10% gina savdo jarayonida ishtirok etayapti. Shuning uchun ham, kursning tezkorlik bilan o'zgarishi birjalarga Yangi bitkoinlar oqib kelishi bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, kriptovalyutalar birjasi juda ham yosh bozor va undagi ko'pchilik o'yinchilar birjalarda ilk bor savdo qilayotganlardir. Tabiiyki, ular eyforiya va vaximaga tushishga moyilroq bo'ladilar. Shu sababli ham bozorda kriptovalyutalar kursining yuqori darajadagi volatilliligi kuzatilayapti.

54. Ommaviy nashrlar va electron axborot vositalaridagi habarlarga ko'ra, kriptovalyutalar kursi doimiy o'sishda bo'lar emish. Agar men bir qancha miqdorda kriptovalyuta sotib olsam, bir-ikki yilda boyib ketamanmi?

Shuni aytish lozimki, kriptovalyutalar kursining navbatdagi o'sishidan avval kurs ikki-uch marta tushib ketadi. Shuning uchun kriptovalyutaning o'sish to'lqiniga tushib olishga harakat qilsangiz va buning uddasidan chiqsangiz, ikki-uch yilda boyig ketishingiz mumkin. 2017 yil boshidan buyon bitkoin narxi salkam ikki yarim barobar o'sdi, efiriumning kursi esa 48 barobar o'sdi va so'ngra ikki barobar kamaydi. Demak,

ushbu bozorda tavakkalchilik darajasi juda ham yuqori. Ammo, tavakkal qilmasang, boy bo'lmaysan va shampanskiy ichmaysan degan gap ham bor halqda. Shuni ham aytish kerakki, xozirgi kunda jahon miqyosida kriptovalyutalarning kapitalizatsiyasi 85 milliard dollarga yetadi, AQSh aholisi depozitlarining miqdori 9 trillion dollar, Rossiyaninki 405 milliard dollar, jahon qimmatli qog'ozlar bozori esa 2016 yil oxirida 86 trillion dollar bo'lgan. Bu raqamlar kriptovalyutalar bozorining rivojlanish miqyosini va imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

55. Ripple ning hozirgi davrdagi (2018 yil) ahvoli qanday?

Ushbu davrda borgan sari ko'p sonli banklar **Ripple** ga o'tmoqdalar. Shuning uchun ham u kapitalizatsiya bo'yicha kriptovalyutalar orasida **Bitcoin** (\$119,9 mlrd) va **Ethereum** (\$39,06 mlrd) dan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi (\$20,82 mlrd). **XRP** ning xozirgi narxi esa \$0,52 bo'lib, kurs valyuta egalariga hamda o'tkazmalarga bog'liq bo'ladi. Shoshimayaptilar, chunki kriptovalyuta unga tegishli xalqaro va milliy qonun qoidalarsiz hali-hanuz stabil valyuta turiga aylanmaydi. Shuning uchun ham banklar bu kriptovalyutaga o'ta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'layaptilar.

56.XRP ni mayning qilsa bo'ladimi?

Yo'q, bu kriptovalyutani mayning qilib bo'lmaydi, chunki uning 100 mlrd tokeni allaqachon chiqarilib bo'lingan. Tokenlarning 61 milliard **Ripple** ning o'ziga tegishli va bundan 55 milliard tokenlar 55 ta smart-kontraktlar bilan blokirovka qilingan. Bundan shunday hulosalar kelib chiqadi - **Ripple** tizimi uning mualliflari ta'kidlaganidek detsentralizatsiyalashmagan.

57.Nima uchun detsentralizatsiya (markazlashmaganlik) muhim hisoblanadi?

Chunki detsentralizatsiya barcha kriptovalyutalarning eng asosiy tamoillaridan biridir. Xuddi shu detsentralizatsiyani hususiyatini ta'minlash uchungina kriptovalyutalar yaratigan edilar. Pullar va mablag'larning davlatga va konkret insonlarga bog'liq bo'lmasligi insonlarga biznes yuritishda hamda pullarni saqlashda katta imkoniyatlar yaratib beradi. Detsentralizatsiya iqtisodiyot rivojlanishi uchun ham juda kuchli richag rolini o'ynaydi. Masalan, bozor iqtisodiyoti davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadigan davlatlarda insonlarning hayot darajasi juda ham past, iqtisodiyotga davlat aralashishi minimal bo'lgan davlatlarda esa aholining hayot sifati anchagina yuqoriligi hech kimga sir emas. Bu xolat tasodifiy emas, albatta, chunki markazlashmaganlik doimo iqtisodiyotni olg'a intiltirishiga hizmat qiladi. Bu qonun kriptovalyutalarga ham tegishli, chunki har qanday to'laqonli kriptovalyuta mavjud bo'lishi uchun hech kimga bog'liq bo'lmagan tizim bo'lishi zaruriy holat hisoblanadi.

58.Ripple tarmog'i va uning ichki valyutasi XRP haqida hulosalar:

Ripple tarmog'i va uning ichki valyutasi **XRP** ning barcha ijobiy hislatlariga

qaramasdan, shuni aytish mumkinki, kriptovalyutalar bozorida markazlashgan tizimlarga ishonib bo'lmaydi. Hozirgi paytdagi barcha kriptotangalar va tokenlar tashqi dunyoga to'la bog'liq bo'lmaslikka intilsalar, **Ripple Labs** ning yaratuvchilari **XRP** ning kursiga ta'sir qiluvchi faktorlarni ko'paytirib yuborganlar. Banklar va ushbu valyutani yaratuvchilar bu valyutada juda katta hissaga egalar va bu **XRP** ning korporativ markazlashgan valyuta ekanligiga yaqqol ishora qiladi. Demak, bu holatlar **XRP** kriptovalyutasi bozorning eng asosiy talabiga javob bermaganligi tufayli to'laqonli kriptovalyuta emasligini anglatadi.

2018 yil davomida bir qancha banklar **Ripple** protokoliga o'tishni davom ettirishi tufayli **XRP**ning kursi dekabr oyiga kelib bir necha marta o'sishi mumkin. Hozirgi davrda kriptobozor pasayish davrini boshdan kechirayotganiga qaramay, **XRP**ning kursi korporatsiyalarning unga bo'lgan katta ishonchi sababli barqaror o'sishda davom etishi mumkin. Lekin uzoq muddatli perspektivada **XRP**ning o'sishiga ishonish qiyinroq. Banklar uchun kursning tez ko'tarilishi yoki tushib ketishi kerak emas, ular uchun valyuta kursi barqaror bo'lgani ma'qul. Bundan kelib chiqqan holda, **XRP**ning kursi biror bir kattalikka erishganidan so'ng, uning atrofida tebranib tura boshlaydi va bu holat banklarga ular istalgan barqarorlikni ta'minlab beradi, deb hulosa qilish mumkin.

59.XRP kriptovalyutasini qanday qilib sotib olish va uni qaerda saqlash mumkin?

XRPni sotib olishning birqancha usullar mavjud, Masalan, **Best Change** yordamida **Bitcoin** sotib olib, undan so'ng bu **Bitcoin**larga istalgan birjajan (**Poloniex**, **Binance** va boshqalardan) **XRP** sotib olish mumkin. **XRP** ni saqlash uchun esa mahsus hamyonlar **Ripplex**, **GateHub** va **Ledger** lardan foydalanish mumkin. Bu hamyonlarga tokenlarni o'tkazish uchun akkaunt ochiladi va hamyon adresiga ular o'tkazilib qo'yiladi.

60.Blokcheyndan foydalanib telefon tarmog'i tashkil qilish mumkinmi?

Ha, mumkin. Masalan, Xitoyning **Huawei Technologies** kompaniyasi blokcheyn texnologiyasi vositasida ishlaydigan smartfon ishlab chiqishni rejalashtirganlar.

Buning uchun **Huawei** Izroilning **Sirin Labs** kompaniyasi bilan kelishilgan holda **SIRIN** operatsion tizimini ishlatmoqchi. Bu tizim **Android** ilovalari singari blokcheyn ilovalarni ham ishga tushirish imkonini beradi. Izroil startapi ham blokcheyndagi smartfon yaratish ustida ish olib bormoqda.

Bu esa o'z navbatida blokcheyn texnologiyalarning ommaviy iste'molchiga yanada yaqinlashishini anglatadi.

61.Kriptovalyutalar va tokenlarning Rossiyada ishlatilishiga oid qonuniy hujjatlar mavjudmi?

2018 yil mart oyi oxirida Rossiya davlat dumasiga "*Raqamli moliyaviy aktivlar haqidd*" deb nomlangan qonun loyihasi kiritilgan. Unga ko'ra, raqamli moliyaviy aktivlar Rossiyada qonuniy to'lov vositasi deb tan olimaydi. Qonun loyihasining maqsadi - Rossiya xuquq maydonida raqamli moliyaviy texnologiyalar vositasida chiqarilgan yoki yaratilgan moliyaviy aktivlarning maqomini belgilashdir. Bunday moliyaviy aktivlar sifatida raqamli tranzaksiyalar reestri (blokcheynlar) tushuniladi. Qonun loyihasida tadbirkorlar tomonidan raqamli aktivlarning bir turi hisoblangan tokenlar chiqarish vositasida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilishning qonun-qoidolari ko'rsatib qo'yilgan. Unda raqamli moliyaviy aktivlarning aniqlanuvlari ham keltirilgan. Asosiy raqamli moliyaviy aktivlar kriptovalyuta va tokenlar hisoblanib, ular elektron smart-kontraktlar vositasida boshqariladilar. Qonun loyihasiga muvofiq, kriptovalyuta va tokenlar mulk hisoblanadi. Ammo shuning bilan bir qatorda, raqamli moliyaviy aktivlar Rossiya hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olinmaydilar.

62.Blokcheyn texnologiyasini qo'llashni qanday sohalarda amalga oshirish mumkin?

Masalan, **IBM** kompaniyasi blokcheyn-texnologiya asosida zargarlik buyumlarining haqiqiylikini tekshirish tizimi **TrustChain** ni yaratdi. Bu tizim zargarlik buyumining homashyo qazib olingan joyidan boshlab to bu buyum savdo tarmog'iga kelguniga qadar bo'lgan yo'lini nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida mahsulotning logistikasini osonlashtiradi va uni barcha uchun ochiq- oydin holatga olib kelishga imkon beradi. **TrustChain** yordamida zanjirning har bir ishtirokchisi qimmatbaho tovarning har bir bosqichdagi harakatini kuzatib turishi mumkin. Ma'lumotlarni yashirishning esa umuman imkoni yo'q, chunki blokcheyndagi barcha ishtirokchilar mahsulot bilan bog'liq bo'lgan barcha harakatlarni taqsimlangan reestr vositasida ko'rib turish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa yuvelir mahsulotlar ishlab chiqarish industriyasini yanada ochiq holatga olib kelish uchun xizmat qiladi va qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish hamda kontrabandani ancha kamaytirishga yordam beradi. Oddiy iste'molchi esa yuvelir magaziniga kelib, mahsulotning **QR**-kodini skanerlaydi va tovar qaydanligini, ishlab chiqarilish bosqichlarini va sifatini yaqqol ko'ra oladi. U zargarlik buyumining sifatini **TrustChain** ga ulangan mustaqil kompaniyalar yordamida tekshirib ham olishi mumkin bo'ladi. Hozirda **TrustChain** tizimiga bir qancha kompaniyalar ulanib olgan. Masalan, qimmatbaho metallar yetkazib beradigan **LeachGarner** va **Asahi Refining** kompaniyalari, zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchi **Richline Group** kompaniyasi, **Helzberg Diamonds** yirik yuvelir magazini, sargarlik mahsulotlarini sifatini tekshirib beradigan **UL Labs**

kompaniyasi va boshqalar **TrustChain** tizimiga ulanib olganlar. Bu esa blokcheyn-texnologiyaning nafaqat kriptovalyuta yaratish, balki boshqa sohalarda ham ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi.

63. Maynerlar hozigacha (2018 yil) qancha bitkoin ololganlar va qachon oxirgi bitkoin mayning qilinadi?

2018 yil iyun oyiga qadar jahondagi barcha maynerlar mumkin bo'lgan jami 21 millionta bitkoinidan 17 millioniga ega bo'lganlar (kuniga bir marta Yangilanib turadigan **blockchain.info** sayti ma'lumotlariga ko'ra). Qolgan 20% bitkoinlar qachon o'z egasini topadi va shundan so'ng nima bo'ladi? Bitkoinning har bir bloki 12,5 ta Yangi bitkoin generatsiya qilishi, har bir Yangi blok esa har 10 daqiqada hosil bo'lishini hisobga olsak, kuniga 1800 ta Yangi bitkoin hosil qilinishini bilab olamiz. Shunday qilib, jami 21 million bitkoinning 80% qismi o'z egasini topgan, 20% qismi esa egalarini kutayapti.

Bitkoinning asoschisi Satoshi Nakamoto 2009 yil 1 yanvarda tarmoqning birinchi blokini ishga tushiganda u ilk 50 ta bitkoin hosil qilgan edi. Shupaytdanberitarmoqhar 210 000 tablokdan so'ng, blok uchun mukofotni 50% ga kamaytiradi. 2016 yil iyulidagi eng oxirgi pasayishdan so'ng, blok uchun mukofot 12,5 bitkoinga tushdi. Agar bitkoinning protokoli o'zgarmay qolsa, oxirgi bitkoin 2140 yil may oyida o'z egasini topadi.

64. O'zbekistonda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalar bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?

2018 yilning fevral oyida president Shavkat Mirziyoev Mirzo Ulugbek Innovation Markazi (**MUIC**) qoshida taqsimlangan reestr texnologiyalari bo'yicha vakolatli markaz tashkil etilishini ma'qulladi (2019 yiga kelib esa bu Markaz Loyihalarni boshqarish agentligi (**NAPU**) tarkibiga kirdi). Respublikamizdagi ko'plab ommaviy axborot vositalari buni blokcheyn taxnologiyasi asosida ishlovchi kriptovalyutalarni legallashtirishga qaratilgan signal sifatida qabul qildi. Lekin taqsimlangan reestr (blokcheyn) texnologiyalari bo'yicha vakolatli markaz kriptovalyutalar bilan shug'ullanmasligito'g'risida Mirzo Ulugbek Innovation Center (**MUIC**) bosh direktori Farxod Ibragimov ma'lum qildi. «Bunday emas, bunga ishonmang», - deya ma'lum qildi janob Ibragimov. Uning fikricha, markazning asosiy vazifalari - blokcheyn texnologiyasini tarqatish uchun shart- sharoitlarni yaratish va bu sohada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlashdir. U rasmiy ravishda markaz kriptovalyutalarni rivojlantirish bilan shug'ullanmasligini ma'lum qildi.

65. Kriptovalyutalar bo'yicha O'zbekiston Markaziy bankining pozitsiyasi qanday?

O'zbekiston Markaziy banki kriptovalyutalar bo'yicha bir necha marotaba izoh

berib, bunday moliyaviy instrumentlarni terrorizmni moliyalashtirish uchun vosita sifatida tavsifladi. Mazkur idora firka ko'ra, "kriptoalyutalardan anonim foydalanish imkoniyatlari bo'lgani tufayli mablag'larning noqonuniy aylanishi va firibgarlik xolatlari ortadi. Bu esa o'z navbatida, bir qator mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi". Mamlakat fuqarolariga esa kriptoalyutalardan umuman foydalanmaslik tavsiya etiladi. Ammo, Markaziy bank bayonotlarida cheklov choralari haqida birorta so'z yo'q. Demak. O'zbekistonda kriptoalyuta maqomi aniqlanmaganligi sababli, ularni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi, ammo bu taqiqlangan ham emas. Demak, istalgan shaxs kriptoalyutani o'z xohishi uchun ko'ra sotib olishi, sotishi va tasarruf qilishi mumkin. Ammo uni mamlakat ichida ishlatish mumkin emas, chunki u rasmiy maqomga ega emas va to'lov vositasi hisoblanmaydi.

66. World Wi-Fi platformasi haqida nima deya olasiz?

Bu platforma "*Efir*" (*Ethereum*) kriptoalyutasi blokcheyniga asoslangan. Ushbu platformani tashkil qilishdan maqsad, dunyoning istalgan nuqtasidagi insonlarga tekin internetdan foydalanishga imkon berishdir. **World Wi-Fi** platformasida uch tomon bo'ladi: internet foydalanuvchisi, router egasi va reklama beruvchi. Ularning har qaysisi ham tizimdan foyda oladi. Uyida router bor bo'lgan va internetga ulangan oddiy insonlarni tekin **Wi-Fi** o'ziga jalb qila oladi, chunki ular internetga qo'shimcha ulanish nuqtasini hosil qilib, unga boshqalarni jalb qiladilar va shu orqali pul ishlay oladilar. Ularga ish haqqi **WeToken** kriptotokenlarida keladi va ular bu tokenlarni real pullarga yoki kriptoalyutalarga almashtirib oladilar. **World Wi-Fi** loyihasini 2017 yil oxirida Yan Sepiashvili va Il'ya Yashin taklif qilib, uning demoversiyasini ishga tushirganlar. Tizim to'liq ravishda 2018 yilning uchinchi kvartalida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

LOYIHA ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

O'QUV LOYIHASI:

“Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarida raqamli texnologiyalarning o'rni”

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

Fanning nomi: “Industrial iqtisodiyot”.

Mavzuning nomi: “Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar”.

Ishtirokchilar: bakalavriat bosqichi “Iqtisodiyot”(mikroiqtisodiyot) yo'nalishi, 4-kurs talabalari.

O'qitishning maqsadi: o'quv kursi bo'yicha egallangan bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni hisoblash bo'yicha malaka ko'nikmalarni shakllantirish.

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari: Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarning maqsadi va vazifalarini anglab etadi; sanoat tarmoqlarning holati va istiqbollarning o'ziga xos jihatlarni ajrata oladi; Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni o'zlashtiradi; Sanoatning tarmoq siyosatiga o'zgartirishlarni kiritish yo'llarini bilib oladi; aniq tarmoq uchun sanoatning tarkibiy siljishlarni tuzish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish; o'z faoliyatini rejalashtirish; ma'lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil etish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko'rinishda taqdim etish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo'lgan tayanch bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:

Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi nutqi, “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori va mamlakatimiz prezidenti asarlarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish to'g'risidagi fikrlari; sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar borasidagi statistik ma'lumotlar; sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar bo'yicha nazariy asoslari; sanoat faoliyatiga doir o'ziga xos jihatlarni tahlil etish va baholash.

Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: sanoatda tarmoq tuzilmasining ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va taqdim etish; sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarda aks ettiriluvchi ma'lumotlarni tahlil etish; guruhda faoliyat yuritish, hamkorlikda o'qish tartibi va qoidalari.

Turlanish belgilari bo'yicha loyihaga tavsif: **turi** amaliy; **predmet va mazmun jihatdan ko'lami** bir fan bo'yicha foydalaniluvchi monoloyiha; **talabalar o'quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri** bevosita; **ishtirokchilar soni** guruh talabalari 3 ta ishchi guruhga bo'linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan 8 tagacha ishtirokchi bo'lishi mumkin (talabalar ko'proq bo'lsa, loyiha yo'nalishlarini ko'paytirish mumkin); **bajarish muddati** qisqa muddatli – bir xafta; xafta davomida sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tashkil etuvchi har bo'lim tayyorligi darajasida taqdimot etib boriladi.

Loyihani bajarish tartibi: talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatlarida bajariladi, amaliy mashg'ulotda taqdim etib boriladi. Loyiha mahsuli bir xafta ichida, talabalar va pedagog o'rtasida belgilangan kunda amalga oshiriladi.

Loyihaning baholanishi – ishchi guruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a'zosi uchun): talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari (maks. ball – 5); hisobot (maks. ball – 5); loyiha taqdimoti va himoya etish jarayoni (maks. ball – 10).

Loyiha asosida o'qitish bosqichlari.

Tayyorlov bosqichi: loyiha bilan tanishish; auditoriyadagi mashg'ulot vaqtida talabalar faoliyatini tashkil etish.

Loyihani bajarish bosqichlari: auditoriyadan tashqari faoliyat davrida.

YAkuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyiha va auditoriya mashg'ulotida talabalarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

Loyiha asosida o'qitishni boshqarish: auditoriyadan tashqari faoliyatda.

O'qitish modeliga qisqacha tavsifnoma.

Loyiha asosida o'qitish jarayonida quyidagilar qo'llaniladi:

o'qitish usullari: loyihalashtirish usuli, matn va axborot manbalari bilan ishlash, taqdimot; *o'qitish shakllari:* ommaviy, alohida, guruhliy; *o'qitish vositalari:* loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatmalar, kompyuter texnologiyalari.

O'QUV LOYIHASI:

“SANOATNING TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJISHLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGOYALARNING O'RNI”

I. LOYIHA TOPSHIRIG'I

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda xalq xo'jaligining etakchi tarmog'i bo'lgan sanoatning mavqei alohida o'rin egallaydi. Mamlakat iqtisodini erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, korxonalarni yangilash va modernizatsiyalashda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va tarkibiy siljishlar katta ahamiyatga ega .

Ushbu strategiya sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni kuzatib, tarkibiy siljishlarni hisoblash usullaridan iborat bo'lib, uning maqsadga muvofiq shakllantirilishi ko'p jihatdan uni tuzish tartibi va tuzuvchilarning malakalariga bog'liq..

Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar deganda, Tarmoq tuzilmasi deyilganda, uning tarkibi, tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar va o'zaro bog'liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergan va yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun xalq xo'jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmog'ining “A“ guruhi bilan “B“ guruhi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
- ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;
- mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o'sganligini.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o'rtasidagi ma'lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni ifodalasa, ikkinchisi ma'lum davr ichidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni, uchinchisi esa ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi.

Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;
- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmidagi salmog'i;
- tarmoq rivojining sur'ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsienti.

Loyiha doirasida echilishi kerak bo'lgan muammo korxonaning hisob yuritish tizimidagi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tuzish iborat.

Vazifalar:

1. Ishlab chiqarish sohasidagi kichik korxona uchun Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tuzish.
2. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxona uchun Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tuzish.
3. Qishloq xo'jaligi sohasidagi kichik korxona uchun Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tuzish.

Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti) tanlangan sohadagi kichik korxona uchun Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarni tuzish.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli) korxona Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar.

Loyihadan foydalanuvchilar: ma'lum bir tanlangan soha korxonasining rahbari va bosh buxgalteri, Sanoat iqtisodiyoti fanini o'rgatayotgan professor-o'qituvchilar, o'rganayotgan talabalar.

Loyihaning tarkibi: Sizga taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarning namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllanishida har bir tanlangan yo'nalish korxonaning o'ziga xos xususiyatlarida o'z aksini topmog'i lozim.

**Loyiha tarkibi va ularning tayyorlanish
muddatlari jadvali ***

№	Loyiha tarkibiy bo'limlarining nomi	Tayyorlanish muddati
1	Tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash shakllari	1 hafta
2	Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash	1 hafta
3	mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasi	1 hafta
4	tarkibiy siljishlarni hisoblash	1 hafta

II. TALABALAR UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR

1. Loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun ko'rsatma

1. Tayyorlov bosqichi.

1.1. Loyiha mavzusini tanlang, dolzarbligini asoslang va echishingiz kerak bo'lgan muammoni shakllantiring.

1.2. Loyiha maqsadi, predmeti, ob'ekti va vazifalarini belgilang.

1.3. Loyihalashtirish faoliyati turlari va echilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tayyorlang. Ularni echish usul va vositalarini tanlang.

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishing (me'yoriy hujjatlar, o'quv adabiyotlari, Sanoat iqtisodiyotlar va boshqalar).

2. *O'quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.*

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlang, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

Loyiha bajarilishining ish rejasi

Ishtirok-chilarning F.I.Sh.	Topshiriq	Faoliyat turi	Tayyor mahsul ko'rinishi	Bajarilish muddati
1	2	3	4	5
*	Loyiha doirasida qatnashchilarni aniqlash, har bir qatnashchining vazifasini belgilash	Qatnashchilar ro'yxati tuziladi, qatnashchilar imkoniyatlariga qarab loyiha uchun tanlangan faoliyat yo'nalishidagi korxonaning Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlardagi bandlar o'zaro taqsimlanadi	Loyihani amalga oshirish rejasi shakllanadi	**
	Qaysi yo'nalishdagi korxona uchun Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar tayyorlanishini tanlash	Korxona xususiyatlarini chuqur tahlil etish orqali ishchi guruh imkoniyatlarini to'g'ri baholash	Yo'nalish aniqlanadi	
1	2	3	4	5
	Korxona ma'lumotlari bankini shakllantirish	Tanlangan korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi	Korxona pasporti	
	Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarning namunaviy tarkibi bo'yicha ma'lumotlarni tarkiblash-tirish	Korxona ma'lumotlaridan nusxa olish, ma'lumotlarni Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar tarkibi bo'yicha jamlash, tahlil etish va qayta ishlash	Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarning dastlabki ko'rinishi yuzaga keladi	
	Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarga qo'yilgan talablar asosida ma'lumotlarni tarkiblashtirish	Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlarning har bir bo'limi bo'yicha ma'lumotlarni o'z o'rniga qo'yish,	Korxona yo'nalishiga qarab tayyor Sanoatning tarmoq tuzilmasi va	

		belgilangan tartib asosida shaklga keltirish	tarkibiy siljishlar	
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha natijalarini to'plash	Korxona Sanoatning tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar tayyor holga keltiriladi	
	Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	Mavzu dolzarbligi va muammoni asoslab berish, loyihaning maqsad va vazifalarini ko'rsatib berish va boshqalar	Hisobot	
	MS Power Pointda loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy rasmiylashtirish va uning mazmunini yana bir bor tekshirish, yangi slaydlarni qo'shish va hokazo	Taqdimot	

Izoh:

* – har bir guruhdagi ishtirokchilar hamda mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ishtirokchilarning F.I.SH.lari belgilanadi;

** – bajarish muddatlari tanlangan loyiha yo'nalishi va guruhdagi vaziyatga bog'liq ravishda muayyan holatdan kelib chiqib belgilanadi.

3. Loyihani bajarish bosqichi.

3.1. Kerakli ma'lumotlarni to'plang, tizimga keltiring va tahlil qiling.

3.2. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtiring (tayyor holatga keltiring).

3.3. *Yo'riqnomaga muvofiq* loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlang.

4. Loyihani taqdimotga tayyorlash.

4.1. MS Power Point da *taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan* foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlang.

4.2. *Loyihaning og'zaki taqdimotida* guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniqlang.

5. *Ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash.*

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.
3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.
6. Vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang:
 - loyiha sifatini;
 - loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llari.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).

3. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:
 - taqdimot turini tanlash;
 - taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
 - slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
 - yangi slaydlarni qo'shish;
 - slaydlarni belgilashni tanlash;
 - zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
 - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.
2. Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:
 - Slaydlar *miqdori* (8-12).
 - *Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari*:
 - birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, -o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
 - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
 - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
 - Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3.1. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

- Agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:
 - yuqori axborotli;
 - bog'lovchili;
 - aniq va qisqa;
 - oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularning barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
 - (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.
- Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozini eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.
- *Rasmlar* aniq va etarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarning o'lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.
- *Videotasmalar* taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.
- *Jadvallarda* ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.
- *CHizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan qoida

Og'zaki taqdimot qoidalari

Taqdimot nimadan iborat bo'lishi lozim?

- loyiha muammosi, maqsadi va vazifalari tushunchasini namoyish etish; ishni rejalashtirish va amalga oshira olishni bilish;

- echimlarni izlash jarayoni tahlili;

- topilgan echim;

- muammoni muvaffaqiyatli va foydali hal etishni mustaqil tahlil qilish natijalari.

Shu jumladan:

Tartibga rioya qilish: guruh chiqishining umumiy davomiyligi – 7-10 daqiqadan kam va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi lozim.

Guruh a'zolari chiqishlarining navbatma-navbatligiga rioya qilish va ularning harakatini kelishtirish

Barcha jadvalli axborotlarga sharhlar.

Taqdimotda nima bo'lmasligi lozim?

Loyiha ishining to'liq yoritilishi va loyiha mahsulotining mazmunini gapirib berish.

Ishtirokchilarning chiqishlaridagi qarama-qarshiliklar.

Noto'g'ri, tushunarsiz, noaniq ifodalar.

Muvaffaqiyatli taqdimot sirlari:

- Doimo ishonch bilan so'zlang.
- Aniq va o'z o'rnida gapiring.
- Intonatsiya (ifoda) ning muhim lahzalarini ajratib ko'rsatgan holda fikringizni tugallangan iboralar bilan bayon eting.

- Bir xil va sekin gapirmang, lekin haddan tashqarii baland gapirish noto'g'ri.
- Muloyim va e'tiborli bo'ling, keskinlikni namoyon etmang, bag'rikeng (tolerant) bo'ling.
- Doimo tabassum bilan boshlang va yakunlang, lekin me'yorni saqlang.
- «Bo'lishi mumkin», «Kim biladi?», «...ehtimol» va h.k. kabi ifodalarni qo'llamang. Bunday ifodalar sizning nutqingizni noaniq qilib qo'yadi, Siz qat'iylikni yo'qotishingiz mumkin.

- Yuzma-yuz aloqani saqlang – tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir ishtirokchiga 3 soniyadan).

- Oyoqlaringizni chalishtirmang, qo'llaringizni orqangizda ushlamang, stolga, minbarga tayanmang, imo-ishorani kamaytiring, ruchkani, markerni o'ynamang, elpig'ich va varaq bilan elpinmang va h.k.

- Javob va takliflarga har gal minnatdorchilik bildiring!

5. Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- har bir talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida (mavzular bo'yicha) qismlari (eng yuqori 15 ball);
- hisobot (eng yuqori 8 ball);
- MS Power Point loyiha taqdimoti (eng yuqori 7 ball);
- og'zaki taqdimot va loyiha himoyasi (eng yuqori 5 ball).

5.1. Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash

	Baholash mezoni	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan etarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: - yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; - keng manbalarga asoslangan
3.	Axborotning rasmiylashtirilishi	Agar axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa, maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan

5.2. Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezoni	Baholash ko'rsatkichlari
1	2	3
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks. 0,5 ball
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball
3.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball
5.	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball

6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball
7.	Vazifalar bo'yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball
1	2	3
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5 ball
9.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball
10.	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni engish berilgan bo'lsa, 1,0 ball
11.	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 1,0 ball

5.3. Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomaga izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball

5.4. Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; so'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); taqdimot vaqtida bo'ladavsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari, maks. 0,2 ball
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball

5.5. Loyihadagi yutuqlarni o'zi baholashi uchun anketa

F.I.SH. _____

O'quv guruhi _____

1. Quyidagi baholash mezonlaridan foydalanib, **o'zingizning loyihadagi yutuqlaringizni baholang**: 2 ball – to'liq egallaganman; 1 ball – qisman egallaganman; 0 ball – bilmayman.

Bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, qobiliyatlar	Loyihaning boshlanishi	Loyihaning tugallanishi
1	2	3
1. Loyihalashtirishning umumlashtirilgan algoritmini bajarish qobiliyati:		
- g'oyani ilgari surish,		
- muammoni ajratib ko'rsatish,		
- maqsadlarni belgilash va ularni hal qilish vazifalarini ifodalash;		
- vazifalarni hal etishning optimal usullari va vositalarini asoslab tanlashning amalga oshirilishi;		
- loyiha topshirig'ini ishlab chiqish;		
- birgalikdagi ishni rejalashtirish va loyihadagi vazifalarni taqsimlash;		
- natijalarni rasmiylashtirish; faoliyat natijalarining ijtimoiy taqdimotini o'tkazish (ma'ruza shaklidagi og'zaki va texnik hamda dasturiy vositalardan foydalanib ko'rgazmali);		
- bajarilgan ish haqidagi yozma hisobotni tayyorlash;		
- o'zini o'zi baholash va refleksiyaning amalga oshirish.		
1	2	3
2. Hamkorlik qilishga tayyorlik qobiliyati:		
- jamoada samarali o'zaro bahamjihat harakatni amalga oshirish;		
- nizolarni kuch ishlatmasdan tartibga solish;		
- kompromiss ilash va konsensusga erishish.		
3. Og'zaki muloqot qilishga tayyorlik qobiliyati		
- og'zaki dialog va polilog yuritish;		
- tanqidiy muhokama yuritish: boshqalar fikrini tinglash va e'tiborga olish; o'z fikrini bildirish va uni dalillab, himoya qilish.		
4. Zamonaviy texnika vositalarini egallaganlik:		
kompyuterni;		
faksni;		
printerni;		
modemni;		
kseroksni.		
5. Axborot va kommunikatsiyaning zamonaviy texnika vositalarini egallaganlik:		
- elektron pochta,		
Internetni.		

6. Axborotlarni izlash, ular bilan ishlash, qabul qilish, joriy etish, o'zgartirish, saqlash, etkazish va taqdim qilishning texnik va dasturiy vositalarini egallaganlik.		
7.Axborot bilan ishlash:		
- axborotlarni kataloglar bo'yicha topish,		
- axborotlarni kontekstiga qarab izlash, gipermatnni va Internetda izlash;		
- axborotlarni tuzilmalash, asosiysini ajratish.		
- axborotlarni grafik shaklda taqdim etish.		
7. Quyidagilarga tayyorlik qobiliyati:		
- o'z qarorlarini qabul qilish va o'z zimmasiga mas'uliyat olish;		
- turli ijtimoiy rollar: etakchi, ijrochi va boshqalar rollarini bajarish;		
tashabbusni o'z qo'liga olish;		
- o'zini o'zi intizomga solib turish;		
- o'z kuchlariga ishonish.		

2.O'zingizning loyihadagi faoliyatingiz natijalarini baholang va tahlil qiling:

1. Sizga loyiha topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarishga nima yordam berdi (keraklisining tagiga chizing, qo'shimcha qiling): bilimlar, malakalar, qobiliyatlar, boshqalar yordami, o'qituvchining maslahatli yordami,_____

2. Sizning aybingizga ko'ra nima bajarilmay qoldi?_____

Buning sabablari (keraklisining tagiga chizing, qo'shimcha qiling): tushunmaslik, qila bilmaslik, axborot kamligi,_____

3. Siz nimani ob'ektiv sababga ko'ra bajara olmadingiz, u nimadan iborat edi va kelgusida mag'lubiyatlarni qanday qilib bartaraf qilish mumkin?_____

4. Agar hammasi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa, buning garovi nimada edi?_____

5.6.O'quv loyihaviy faoliyatni reyting baholash jadvali

talaba_____guruh_____

Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari					
	mazmunli faollik (maks. ball__)	vaqtida bajarilganlik (maks. ball__)	ishning unumligi (maks. ball__)	baho (ball)		
				o'z-o'zini baholash	guru hlar	o'qi-tuvchi
Loyihaning maqsadi va vazifalarini ifodalash, uni bajarish usullari va vositalarini aniqlash						
Ishni rejalashtirish		-	-			
Alohida (individual) vazifani bajarish						
Mahsulotni rasmiylashtirish	-	-				
Hisobot tayyorlash	-	-				
Taqdimot tayyorlash	-	-				
Taqdimot va himoya		-	-			
Jami ---ball						
Yakuniy --- ball				Reyting baholash -		

**FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR, VIDEO
ROLIKLAR**

<https://www.youtube.com/watch?v=sR-qL7QdVZQ> Philip Kotler: Marketing
<https://www.youtube.com/watch?v=hZLMv5aexto4> Principles of Marketing

Strategy

<https://www.youtube.com/watch?v=H8aZr-Ula1w> Marketing Mix: Pricing

Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=XBmWEduod5k> Pricing Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=GZgFdPWtVGY> Promotion

<https://www.youtube.com/watch?v=ys7zx1Vc9po> The Seven Ps of the Marketing

Mix: Marketing Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=H8FANR-2u2Q> Strategic Planning: SWOT

TOWS Analysis

<https://www.youtube.com/watch?v=qbyb0ht-dsk> McDonalds SWOT

<https://www.youtube.com/watch?v=mCdcdf-b8AU> PEST Analysis

<https://www.youtube.com/watch?v=Zq391bgs6h0> - What is Market Research?

An Informative Presentation.

<https://www.youtube.com/watch?v=sdQfId91Y0g> - Ethical Behavior in

Marketing

https://www.youtube.com/watch?v=n_L4tBP_KFQ - Market Segmentation:

Geographic, Demographic, Psychographic & More - Study.com

<https://www.youtube.com/watch?v=IyJDjr33wAQ> - Live affiliate marketing case

study

https://www.youtube.com/watch?v=2Zwlb_lQ23I - Market Feasibility Study:

More Important Than a Business Plan

<https://www.youtube.com/watch?v=b0hle7pVLmM> How to Create a Digital

Marketing Strategy - A Silverstone Case Study

<https://www.youtube.com/watch?v=ZzPjSqym9P8> Infragistics Marketing

Dashboard Case Study

<https://www.youtube.com/watch?v=laTzwz08M94> Market segmentation: a case

study

<https://www.youtube.com/watch?v=bqaEhW3xOCk> Market Orientation and

Sales Orientation

<https://www.youtube.com/watch?v=IggKinwxbZ4> Part 5: Marketing, Community

and Apps Case Study featuring Coca-Cola - Salesforce World Tour Chicago

<https://www.youtube.com/watch?v=z-9Yxo02hRk> Case Study 2016: When

Content Marketing Meets SEO

<https://www.youtube.com/watch?v=lcoLoIyGw7I> Nike Marketing Strategy |

Successful Marketing #1

https://www.youtube.com/watch?v=9_XWp5fnXKc What is Marketing & Brand

Strategy?

**QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARI SHARHI**

QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma'ruza mashg'ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg'ulot – OO'YUda o'qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo'naltirilgan.

Ma'ruzani asosiy belgilanishi – o'qitishni nazariy asosini ta'minlab berish, o'quv faoliyatga va aniq o'quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o'quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma'ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma'ruza materiallarining mazmuni quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko'p emasligi.

Ma'ruza materiallarining hajmi rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun etarli bo'lishi kerak.

Ma'ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlar

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma'ruzasi</i>	
Fan doirasida o'quv axborotini o'zlashtirish bo'yicha talabalar harakatining yo'naltiruvchi asosini ta'minlash.	Ta'lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o'quv fani mazmuni, uning o'quv jarayonidagi o'rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to'g'risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo'naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma'ruza</i>	
O'quv mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an'anaviy ma'ruza turi: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.

<i>Muammoli ma'ruza</i>	
Muammoni belgilash va uni echimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda echishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	

Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.
--	---

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg'ulot:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

-

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi. Ma'ruza va referatlar muhokamasi. Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Press-konferentsiya. Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z

beradi) so'z beriladi. SHundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi.

O'zaro o'qish.

Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarining ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi.

Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.

O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar.

Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

1. «YOzma yumoloq stol» - talabaning savoli / echimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi.

2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Spetsseminar.

Bakalavriyatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarining guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi.

<i>Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i>	Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollari va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.
Maxsus (kasbiy) va umumo'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va echish jarayonida xarakteristik algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.	Ta'limiy o'yin. O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu erda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shakllantiradi; vyirabatyvaet dinamik rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnoma, personajlar ta'rifi (agar o'yin roli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. Masalalar echish bo'yicha mashq. YAKka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani echish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni echish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni echish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keysarlarni) echish.

	Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq echim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi. Keysni echish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va echish, → yakka tartibda topilgan echimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul echim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni echish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni echish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqkamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi. <i>O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i> Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish. Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida). O'qituvchi guruhlarining o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
<i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i>	<i>Kollokvium.</i> O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan etarli darajada

	o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. YOzma ishlar tekshirilishi mumkin. YOzma (nazorat) ish. Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni echadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.
--	---

3. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

☞Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni echishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.


☞O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchunmuammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi echim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha soʻzdan olingan boʻlib - **INSERT** – Interaktiv- interfaol **Noting** – belgilash **System** - tizim for-uchun **Effective** – samarali **Reading** – oʻqish and– va **Thinking** – fikrlash degan maʼnoni anglatadi).

1) Samarali oʻqish va fikrlash uchun matnda belgilar qoʻyishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni oʻylantirib qoʻydi. Bu boʻyicha menga qoʻshimcha axborot kerak.

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – toʻplam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni echish jarayonida qoʻllash imkonini beruvchi *oʻqitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni oʻrganib va tahlil qilib, oʻquvchilar oʻzining kelgusidagi kasbiy faoliyatida oʻxshash vaziyatlarda qoʻllashi mumkin boʻlgan tayyor echimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashgʻulotlarda echiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan boʻlsa, keysda, qoidaga koʻra, bunday parametrlar mavjud emas.

Oʻquvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan boʻlishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni echish uchun kerakli va etarli xajmda maʼlumotlarni oʻz ichiga olishi kerak
- keysni echish uchun *uslubiy koʻrsatmalar* boʻlishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– toʻplam, aniq vaziyat, stadi-oʻqitish)–amaliy oʻqitish vaziyatlarimethodi.

Keys-stadi - oʻqitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qoʻyilgan taʼlim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli

vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo echimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy echimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'igayo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu “yo’ldoshcha”larda “kichik yo’ldoshlar” ham bo’lishi mumkin, ular ichiga yana so’z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g’oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?»** **SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo’yicha fikrlar zanjiri bo’lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

O’quv topshiriqda ko’rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


- 1) Muammoni yozing va strelka chizig’ini chiqarib «Nima uchun?» so’rog’ini yozing.
- 2) Savolga javob yozib nima uchun so’rog’ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI**» **CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

O’quv topshiriqda ko’rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o’ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«**QANDAY?»** **IERARXIK DIAGRAMMASI** - muammo to’g’risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning echimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

**TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR
VA INTERNET SAYTLAR**

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Axborotlashgan iqtisodiyot	Информационная экономика	Information economy	bu jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida elektron (axborot-kommunikatsiya) texnologiyalarini keng joriy etishni ko'zda tutadigan insonning xo'jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır.
Bilimlarni boshqarish	Управление знаниями	Knowledge management	bu bilimni identifikatsiya qilish, bilimni boshqarish, bilimni rivojlantirish va undan foydalanishdir. U bilimlarni qanday olish, uni tarqatish, o'zgartirish, undan foydalanish hamda firma uchun zarur amaliy ustunliklarni uzluksiz topish bilan shug'ullanadi.
Global menejment paradigmasi	Глобальная парадигма управления	The Global Management Paradigm	bu jahon darajasidagi milliy, madaniy yoki siyosiy an'analar va odatlardan qat'iy nazar, kompaniyalar tomonidan to'liq yoki qisman amal qilinadigan boshqarish tizimidir. Bu tashkil qilish, qarorlar qabul qilish va asoslash kabi sohalarda o'zaro bog'langan, mantiqiy izchil harakatlar majmuidir.
Jarayonni integratsiyalashgan boshqarish	Интегрированное управление процессами	Integrated process management	boshqarishning tizimli usuli bo'lib, uning asosiy xususiyati iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarni yagona jarayonga birlashtirishdan iborat. Xaridor qo'lidagi mahsulot ishlab chiqarish siklining bir

			qismi deb hisoblanadi, bu esa xaridorni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashuvini (qoʻshilishini) nazarda tutadi.
Jarayon innovatsiyasi	Innovatsionnyy protsess	Process innovation	yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki etkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalar va/yoki dasturiy taʼminotdagi sezilarli oʻzgarishlarni joriy etishdir.
Marketing innovatsiyasi	Маркетинговые инновации	Marketing innovation	bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish) agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan boʻlsa.
Intellectual mulk	Интеллектуальная собственность	Intellectual property	bu intellektual faoliyat natijalari va xoʻjalik aloqalari ishtirokchilarining individuallashtirish vositalaridir. Intellektualmulk obyektlariga ixtirolar, foydali modellar, sanoatnamunalari, tovar belgilari, hizmat koʻrsatish belgilari, firma nomlari, tijorat nomlari va belgilari kiradi.
Tovar belgisi	Товарный знак	Trademark	bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining oʻxshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun moʻljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki soʻzlarning birikmasidir.
Ixtiro	Изобретение	Invention	bu turli sohalaridagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamplari,

			o`simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy ob`ektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik echim.
Foydali model	Полезная модель	Model	bu moslamaga taalluqli texnik echim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste`mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi.
Sanoat namunalari	Промышленные образцы	Industrial Designs	bu sanoat yoki hunarmandlik buyomlarining tashqi ko`rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik echimidir.
Seleksion yotug`lar	Технологические новинки	Selection achievements	ijodiy mehnat orqali o`simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi turini yaratish (aniqlash) kabi insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir.
Kriptografiya	Криптография	Cryptography	informatsiyani himoyalash uchun uni o'zgartirish usullarini o'rganishning matematik metodlarini anglatadi
Elektron raqamli imzo	Цифровая подпись	Digital Signature	matnga biriltirilgan va uning kriptografik o'zgartirilishini aniqlab beradigan ma'lumot bo'lib, matn boshqa foydalanuvchi tomonidan olinganida uning haqiqiy-ligini va muallifini tekshirish-ga imkon beradi.
Bitkoin kriptovalyutasi	Биткойн криптовалюта	Bitcoin cryptocurrency	bu o'zaro ishonchga emas, balki kriptografik kodlash tizimiga asoslangan, o'zaro hech qanday vositachilarsiz (bank yoki boshqacha moliyaviy uskunalarsiz) to'lovlarni bevosita

			ishtirokchilar orasida amalga oshirilishini ta'minlovchi to'lov tizimi valyutasining bir turidir.
Blokcheyn	Блокчейн	Blockchain	raqamli kriptovalyutalar haqidagi ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladigan komp'yuter tarmoqlariaro taqsimlangan reyestr, ya'ni, bir- biri bilan internet orqali bog'langan ko'plab kompyuterlarda bir vaqtning o'zida saqlanuvchi taqsimlangan ma'lumotlar bazasi
Kriptovalyuta birjalari	Криптовалютные биржи	Cryptocurrency exchanges	elektron raqamli pullar - kriptovalyutalar bo'yicha pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan birjalar
Mayning	Майнинг	Mining	bu kompyuter tizimlarining hisoblash quvvatlarini kriptovalyutaning tranzaktsiyalari zanjirini xosil qilish uchun ishlatilish jarayonidir.
Virtual valyuta	Виртуальная валюта	Virtual currency	narxni belgilash vositasi bo'lib, u bilan raqamli ko'rinishda savdo qilish mumkin.

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией : учебник / Л.В. Лapidус. — М.: ИНФРА-М, 2019.
2. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник / В.Д. Маркова. — М.: ИНФРА-М, 2019.
3. Хасаншин И. А., Кудряшов А.А., и др. Цифровая экономика. Учебник для вузов - М.: Горячая линия. Телеком, 2019
4. Gulyamov S.S., Ayupov R.H. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar'.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
5. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.// Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentyabr'.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-385-son Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi "Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4321-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrda "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 sentyabrdagi "«Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3927-son qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori.

14. O'zbekiston Respublikasining 2014-2017 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. WWW/ stat.uz.

Elektron jurnallar

1. International Journal of Business Forecasting and innovation. www.inderscience.com

2. Ansoff matrix. www.free-management-ebooks.com

3. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz

4. Экономическое обозрение_ www.cer.uz

5. Journal of Innovation. www.ama.org

6. Journal of Marketing Research. www.ama.org

Internet saytlar

1. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)

2. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)

3. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

4. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

5. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellectual mulk agentligi)

6. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)

7. <http://www.semi.rssi.ru>– Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti.

8. <http://www.nber.com>– AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.

9. <http://www.webofscience.com>- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.

10. <http://www.scopus.com> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.

11. <http://www.elibrary.ru> – Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.

I.R. Botirova

RAQAMLI IQTISODIYOT

fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua

Amaliy mashg'ulot uchun

Namagan: NamMQI, 2023-yil, 105 bet.